

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2025-yil 2-son

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content  
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**Nashr bo'yicha mas'ul:**

O. Choriyev

**Muharrirlar:**

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,  
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,  
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Sh. Beknazarova

**Musahhih:**

S. Rasulova

**Texnik muharrir:**

U. Sapayev

**Dizayner:**

D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar,  
Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

**Nashriyot litsenziyasi**

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 26-iyunda bosmaxonaga topshirildi.  
Qog'oz bichimi: A4.  
Shartli bosma tabog'i: 5  
Adadi: 100. Buyurtma: № 116.

**Bosmaxona litsenziyasi**

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:  
100047. Toshkent shahri,  
Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

**BOSH MUHARRIR**

*I. Rustambekov* – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

*B. Xodjayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

**MAS'UL MUHARRIR**

*O. Choriyev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI**

*A. Saidov* – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

*E. Juchniewicz* – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

*A. Younas* – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

*O. Okyulov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*J. Nematov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*Sh. Asadov* – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Aminjonova* – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Rahimov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*O. Narzullayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*B. Murodov* – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*A. Muxamedjanov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*N. Niyazova* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ  
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Ответственный за выпуск:**  
О. Чориев

**Редакторы:**

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,  
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,  
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,  
Ш. Бекназарова

**Корректор:**

С. Расулова

**Технический редактор:**

У. Сапаев

**Дизайнер:**

Д. Ражапов

**Адрес редакции:**

100047. Город Ташкент,  
улица Сайилгох, 35.  
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Подписной индекс:** 1385.

**Издательская лицензия**

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию  
26.06.2025.

Формат бумаги: А4.  
Усл. п. л. 5. Тираж: 100 экз.  
Номер заказа: 116.

**Лицензия типографии**

от 29.11.2023. № 174626

Отпечатано в типографии  
Ташкентского государственного  
юридического университета.  
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный  
юридический университет

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**

*И. Рустамбеков* – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

**ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА**

*В. Ходжаев* – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР**

*О. Чориев* – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

**ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ**

*А. Саидов* – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*Э. Юхневич* – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

*А. Юнас* – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

*О. Окюлов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Ж. Нематов* – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Ш. Асадов* – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*М. Аминжонова* – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*М. Рахимов* – доктор философии по юридическим наукам, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*О. Нарзуллаев* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*В. Муродов* – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*А. Мухамеджанов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Н. Ниязова* – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Publication Officer:**

O. Choriev

**Editors:**

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,  
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,  
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,  
Sh. Beknazarova

**Proofreader:**

S. Rasulova

**Technical editor:**

U. Sapaev

**Designer:**

D. Rajapov

**Publishing department address:**

100047. Tashkent city,  
Sayilgokh street, 35.  
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Subscription index:** 1385.

**Publishing license**

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.06.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 5.

Units: 100. Order: № 116.

**Printing house license**

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of  
Tashkent State University of Law.  
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

© Tashkent State University of Law

**EDITOR-IN-CHIEF**

*I. Rustambekov* – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**DEPUTY EDITOR**

*B. Xodjaev* – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**EXECUTIVE EDITOR**

*O. Choriev* – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

**MEMBERS OF EDITORIAL BOARD**

*A. Saidov* – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

*E. Juchniewicz* – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

*A. Younas* – Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Beijing, China)

*O. Okyulov* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*J. Nematov* – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*Sh. Asadov* – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Aminjonova* – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Rakhimov* – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

*O. Narzullaev* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*B. Murodov* – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*A. Muxamedjanov* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*N. Niyazova* – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

# MUNDARIJA

## 12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 8 **MUXITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**  
Yangi O'zbekistonda huquqiy madaniyatni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari

## 12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 23 **RAXIMOV DILMURODJON G'ULOMJON O'G'LI**  
Davlat xizmati instituti: tushunchasi, mohiyati va shakllanishi
- 35 **XOLIQOV SARVAR MINGISHOVICH**  
Qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlashning dolzarb masalalari: O'zbekiston va xalqaro tajriba
- 41 **USMONOV OTABEK ODILBEK O'G'LI**  
Jamoatchilik nazoratini tashkiliy jihatdan raqamlashtirish va uning oldida turgan dolzarb muammolar
- 57 **ISMAILOV BEKJON SALIHOVICH**  
Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqiy maqomi konsepsiyasi: huquqiy tahlili
- 65 **TULYAKOV ELDOR**  
Korrupsiyaga qarshi kurashishda tahlil markazlarining roli: siyosatni tahlil qilishdan nazoratgacha

## 12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 73 **RUZINAZAROV SHUXRAT NURALIYEVICH**  
Elektron tijorat va logistika: huquqiy ta'minot masalalari
- 86 **NARZIYEV OTABEK SA'DIYEVICH, NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**  
Xitoyda sun'iy intellekt va robot-maslahatchilar: tartibga solish xususiyatlari hamda o'ziga xos jihatlari
- 97 **MAHMUDXODJAYEVA UMIDA MUMINOVNA**  
Voyaga yetmaganga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning fuqarolik huquqiy masalalari
- 109 **INOYATOV NODIRBEK HAYITBOY O'G'LI**  
"Vital" va "Sophiya" robotlari – raqamli davrda yangi huquq subyektlari sifatida

## 12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 117 **ABDUSAMADOV DILMUROD FARXOD O'G'LI**  
Iqtisodiy sud ishlarini yuritish prinsiplari: odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

## 12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 127 **IBADOVA ANJELIKA ISMATULLOYEVNA**  
Tan jarohatlari yetkazish jinoyatlarini tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanishning ahamiyati

## 12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 137 **GAFUROVA NOZIMAXON EL DAROVNA, RAYIMOVA MUNISA NOZIM QIZI**  
Sog'liqqa bo'lgan huquqning tamaki chekishga qarshi kurashishdagi roli: O'zbekiston va Avstraliyaning qiyosiy tajribasi

## 12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIYA FAOLIYATI

- 148 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH, ABDUSAMATOVA ZARINA HASAN QIZI**  
Fransuz jandarmeriya modeli jamoat xavfsizligi tizimining etaloni sifatida

# СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

- 8 **МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА АБДУРАШИДОВНА**  
Современные подходы к формированию правовой культуры в Новом Узбекистане

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.  
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

- 23 **РАХИМОВ ДИЛМУРОДЖОН ГУЛОМЖОН УГЛИ**  
Институт государственной службы: понятие, сущность и формирование
- 35 **ХОЛИКОВ САРВАР МИНГИШОВИЧ**  
Актуальные вопросы обеспечения жильём военнослужащих Вооружённых Сил: опыт Узбекистана и зарубежных стран
- 41 **УСМАНОВ ОТАБЕК ОДИЛБЕК УГЛИ**  
Организационная цифровизация общественного контроля и её актуальные проблемы
- 57 **ИСМАИЛОВ БЕКЖОН САЛИХОВИЧ**  
Концепция правового статуса лиц с инвалидностью: правовой анализ
- 65 **ТУЛЯКОВ ЭЛЬДОР**  
Роль экспертно-аналитических центров в борьбе с коррупцией: от анализа политики до контроля

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.  
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 73 **РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ**  
Электронная коммерция и логистика: вопросы правового обеспечения
- 87 **НАРЗИЕВ ОТАБЕК САЪДИЕВИЧ, НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА**  
Искусственный интеллект и роботы-консультанты в Китае: характеристика и особенности регулирования
- 97 **МАХМУДХОДЖАЕВА УМИДА МУМИНОВНА**  
Гражданско-правовые вопросы ответственности за вред, причинённый несовершеннолетнему
- 109 **ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙТБОЙ УГЛИ**  
Роботы Vital и Sophia как новые субъекты права в цифровую эпоху

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ  
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

- 117 **АБДУСАМАДОВ ДИЛМУРОД ФАРХОД УГЛИ**  
Принципы ведения экономических судебных дел: осуществление правосудия исключительно судом

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ  
ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

- 127 **ИБАДОВА АНЖЕЛИКА ИСМАТУЛЛОЕВНА**  
Значение использования специальных знаний при расследовании преступлений, связанных с причинением телесных повреждений

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

- 137 **ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА, РАЙИМОВА МУНИСА НОЗИМ КИЗИ**  
Роль права на здоровье в борьбе против табакокурения: сравнительный анализ опыта Узбекистана и Австралии

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ  
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

- 148 **ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ, АБДУСАМАТОВА ЗАРИНА ХАСАН КИЗИ**  
Французская модель жандармерии как эталон системы общественной безопасности

# CONTENTS

---

## 12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **MUKHITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**  
Modern approaches to the formation of legal culture in New Uzbekistan

---

## 12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 23 **RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON UGLI**  
Public service institution: concept, essence and formation
- 35 **KHOLIKOV SARVAR MINGISHOVICH**  
Current issues of providing housing for armed forces personnel: Uzbekistan and international experience
- 41 **USMANOV OTABEK ODILBEK UGLI**  
Digitalization of the organizational aspects of public oversight and the pressing challenges it faces
- 57 **ISMAILOV BEKJON SALIHOVICH**  
The concept of the legal status of persons with disabilities: legal analysis
- 65 **TULYAKOV ELDOR**  
The role of think tanks in combating corruption: from policy analysis to oversight

---

## 12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 73 **RUZINAZAROV SHUKHRAT NURALIYEVICH**  
E-commerce and logistics: legal support issues
- 86 **NARZIEV OTABEK SA'DIEVICH, NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**  
Artificial intelligence and robo-advisors in China: characteristics and features of regulation
- 97 **MAHMUDKHODJAEVA UMIDA MUMINOVNA**  
Civil law issues of liability for damage caused to a minor
- 109 **INOYATOV NODIRBEK HAYITBOY UGLI**  
Vital and Sophia robots as new legal subjects in the digital age

---

## 12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 117 **ABDUSAMADOV DILMUROD FARKHOD UGLI**  
Principles of conducting economic court cases: justice is administered solely by the court

---

## 12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 127 **IBADOVA ANGELIKA ISMATULLOYEVNA**  
Importance of using special knowledge in investigating crimes involving bodily injuries

---

## 12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 137 **GAFUROVA NOZIMAKHON ELDAROVNA, RAYIMOVA MUNISA NOZIM KIZI**  
The role of the right to health in the fight against tobacco smoking: comparative analysis of the experience of Uzbekistan and Australia

---

## 12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 148 **KHUJAMBERDIEV FARRUKH KOMILOVICH, ABDUSAMATOVA ZARINA KHASAN KIZI**  
The french model of gendarmerie as a standard of public security system

Kelib tushgan / Получено / Received: 01.05.2025  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 16.06.2025  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.2./KXYR4098

UDC: 342.41: 35.072.6 (045)(575.1)

## JAMOATCHILIK NAZORATINI TASHKILIY JIHATDAN RAQAMLASHTIRISH VA UNING OLDIDA TURGAN DOLZARB MUAMMOLAR

**Usmonov Otabek Odilbek o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi,  
Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar  
huquqlarini himoya qilish qo'mitasi  
raisining jamo'atchilik bilan aloqalar bo'yicha maslahatchisi  
ORCID: 0000-0002-8622-7411  
e-mail: otabekusmanov0006@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish zarurati va uni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tadqiq etildi. Davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kontekstida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali jamoatchilik nazoratini tashkil qilish masalalari tadqiqot predmeti sifatida olindi. Mavzuning dolzarbligi davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni kuchaytirish, shaffoflikni ta'minlash hamda fuqarolarning boshqaruv jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalar, xususan, blokcheyn, sun'iy intellekt va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida ilmiy-nazariy tahlil, tizimli yondashuv va xalqaro tajriba tahlili metodlaridan foydalanildi. O'zbekiston sharoitida raqamli jamoatchilik nazoratini joriy etish imkoniyatlari va xatarlar tahlil qilinib, Kanada, Shvetsiya va Yevropa Ittifoqi davlatlari tajribalari ko'rib chiqildi. Natijada raqamli jamoatchilik nazoratini shakllantirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish hamda huquqiy asoslarni mustahkamlash zarurligi asoslab berildi. Muallif xulosada ushbu natijalar davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari, ijtimoiy faollikni oshirish va raqamli xizmatlar sohalarida qo'llanishi mumkinligini ta'kidlab, raqamli nazoratning huquqiy, tashkiliy va texnologik asoslarini takomillashtirish borasidagi amaliy tavsiyalarini ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** jamoatchilik nazorati, blokcheyn amaliyoti, sun'iy intellekt, raqamli jamoatchilik nazoratida OAVning roli, tashkiliy mexanizmlar, raqamli fuqarolik jamiyati, raqamli jamoatchilik nazorati, raqamli elita, inklyuziya

### ОРГАНИЗАЦИОННАЯ ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ И ЕЁ АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ

**Усманов Отабек Одилбек угли,**  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета,  
советник председателя Комитета по развитию конкуренции  
и защите прав потребителей по связям с общественностью

**Аннотация.** В настоящей статье исследуется необходимость цифровизации общественного контроля и его организационно-правовые основы. В качестве предмета исследования рассматриваются вопросы организации общественного контроля с применением цифровых технологий в контексте взаимодействия государственного управления и институтов гражданского общества. Актуальность темы обусловлена необходимостью укрепления доверия между государством и обществом, обеспечения прозрачности и активного участия граждан в процессах управления. Целью исследования является разработка эффективных механизмов общественного контроля с использованием цифровых технологий, в частности блокчейна, искусственного интеллекта и средств массовой информации. В ходе исследования применялись методы научно-теоретического анализа, системного подхода и анализа международного опыта. Анализируются возможности и риски внедрения цифрового общественного контроля в условиях Узбекистана, изучается опыт Канады, Швеции и государств Европейского союза. В результате обоснована необходимость формирования цифрового общественного контроля, укрепления сотрудничества между государством и обществом, повышения цифровой грамотности граждан и совершенствования правовых основ. В заключении автор подчёркивает, что полученные результаты могут быть применены в сферах государственного управления, деятельности институтов гражданского общества, развития гражданской активности и цифровых сервисов, а также выдвигает практические рекомендации по совершенствованию правовых, организационных и технологических основ цифрового контроля.

**Ключевые слова:** общественный контроль, применение блокчейна, искусственный интеллект, роль СМИ в цифровом общественном контроле, организационные механизмы, цифровое гражданское общество, цифровой общественный контроль, цифровая элита, инклюзия

## DIGITALIZATION OF THE ORGANIZATIONAL ASPECTS OF PUBLIC OVERSIGHT AND THE PRESSING CHALLENGES IT FACES

**Usmanov Otabek Odilbek ugli,**

Independent researcher at Tashkent State University of Law,  
Advisor to the Chairman on Public Relations of the Committee for the  
Development of Competition and Protection of Consumer Rights,

**Abstract.** This article examines the need for digitalization of public control and the organizational and legal basis for its implementation. The subject of the research is the issues of organizing public control through the use of digital technologies in the context of interaction between public administration and civil society. The relevance of the topic is determined by the need to strengthen trust between the state and society, ensure transparency, and ensure the active participation of citizens in management processes. The purpose of the study is to develop effective mechanisms of public control through the use of digital technologies, in particular, blockchain, artificial intelligence, and mass media. Within the framework of the research, methods of scientific and theoretical analysis, a systematic approach, and analysis of international experience were used. The possibilities and risks of implementing digital public control in the context of Uzbekistan were analyzed, and the experience of Canada, Sweden, and the European Union countries was considered. As a result, the necessity of forming digital public control, strengthening cooperation between the state and society, increasing the digital literacy of citizens, and strengthening the legal framework was substantiated. In the conclusion, the author notes that these results can be applied in the field of public administration, civil society institutions, increasing social activity, and digital services, and puts forward practical recommendations for improving the legal, organizational, and technological foundations of digital control.

**Keywords:** public oversight, blockchain practice, artificial intelligence, the role of mass media in digital public oversight, organizational mechanisms, digital civil society, digital public oversight, digital elite, inclusion

## Kirish

XXI asr boshidan buyon raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Bugungi kunga kelib, raqamlashtirish jarayonlari nafaqat iqtisodiyot va ta'lim, balki davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida ham asosiy omillardan biriga aylangan.

Bugungi jamiyatda raqamlashtirish jarayonlari barcha sohalarada jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik ishtirokidagi jarayonlarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning kuchayishi jamoatchilik nazoratini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Jamoatchilik nazoratining raqamlashtirilishi nafaqat uning samaradorligini oshirish, balki davlat organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning kafolatlarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonda ham oxirgi yillarda jamoatchilik nazoratini takomillashtirishga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni qo'llash, sun'iy intellekt, blokcheyn va ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish orqali jamoatchilik nazoratini tarkibiy jihatdan raqamlashtirish ehtiyoji kun tartibida turibdi. Bu esa, o'z navbatida, jamoatchilik nazoratini tashkil etishda yangi yondashuvlar, zamonaviy mexanizmlar va huquqiy-tashkiliy yechimlarni talab etadi.

Ushbu maqolada jamoatchilik nazoratini raqamlashtirishga oid nazariy va amaliy jihatlar tahlil qilinadi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish omillari o'rganiladi. Xalqaro tajriba, xususan, Kanada, Shvetsiya va Yevropa Ittifoqi davlatlari misolida raqamli jamoatchilik nazoratining samarali modeli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida raqamlashtirish orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning imkoniyatlari, yuzaga keladigan xatarlar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Maqolaning maqsadi jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish hamda uning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Bunda quyidagi masalalarni hal etish zarur:

– raqamli texnologiyalar (blokcheyn, sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari)-dan foydalanib, jamoatchilik nazoratining huquqiy hamda tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;

– jamoatchilik nazorati jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni, xususan, raqamli savodxonlik yetishmasligi, texnologik nosozliklar va huquqiy bo'shliqlarni aniqlash va ularga yechimlar taklif qilish;

– xalqaro tajribani o'rganib, O'zbekiston sharoitiga mos keladigan raqamli jamoatchilik nazoratining optimal modelini ishlab chiqish.

Maqolada, shuningdek, raqamlashtirish orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirokini ta'minlash imkoniyatlari keng tahlil qilinadi.

Jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish masalasiga xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan qator yondashuvlar ishlab chiqilgan. Xususan:

– OECD tomonidan e'lon qilingan *"The OECD Framework for Digital Talent and Skills in the Public Sector"* (2021) hisobotida davlat xizmatchilarining raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish, shaffoflik va ishonchlilikni oshirish uchun raqamli vositalardan foydalanish konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

– *Rossiya Federatsiyasi prezidentining Fuqarolik jamiyati va inson huquqlari bo'yicha kengashi* o'tkazgan tadqiqotlarda raqamli jamoatchilik nazoratining sotsiologik, siyosiy va huquqiy jihatlarini yoritilgan.

L.N. Demidov va boshqalar tomonidan tayyorlangan *"Informatsion texnologiyalar"* darsligida axborot texnologiyalarining tasnifi, amaliy qo'llanishi va boshqaruv sohasidagi roli batafsil tahlil qilingan. A.O. Shulikov va I.K. Sanakov tadqiqotlarida esa blokcheyn texnologiyasining davlat boshqaruvida shaf-

foflik va xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu adabiyotlar maqolada ilgari surilgan nazariy va amaliy fikrlarni mustahkamlashda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari chuqur o'rganiladi.

Umuman olganda, maqolada foydalanilgan adabiyotlar jamiyatda jamoatchilik nazoratini raqamlashtirishning dolzarbligi, texnologik, institutsional va huquqiy jihatlari qamrab olgan. Ular muallif ilgari surgan g'oyalarni nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Kelgusida mahalliy manbalar va stilistik birliklarga e'tibor qaratilishi maqolaning ilmiy qiymatini yanada oshiradi.

#### **Material va metodlar**

Ushbu ilmiy tadqiqotda jamoatchilik nazoratini raqamlashtirishga oid nazariy va amaliy masalalarni chuqur o'rganish maqsadida turli metodologik yondashuvlarning uyg'unligi asosida kompleks tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy mazmuni quyidagilarga qaratildi:

– jamoatchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirishda raqamli texnologiyalar (sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyasi, OAV va ijtimoiy tarmoqlar)dan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish;

– zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarning raqamli vositalar orqali mustahkamlanishini o'rganish;

– xalqaro tajribalarni (Kanada, Shvetsiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari misolida) o'rganib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan jamoatchilik nazoratining raqamlashtirilgan modelini ishlab chiqish;

– raqamli nazoratning huquqiy, tashkiliy va texnologik asoslarini chuqur o'rganish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va jamoatchilik nazorati-

da sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari qo'llanishining huquqiy va amaliy jihatlari tahlil qilish.

Tadqiqot doirasida mahalliy qonunchilik hujjatlari, xalqaro standartlar, sohadagi ilmiy maqolalar va mutaxassislarining amaliy tajribalari o'rganildi hamda mavjud dolzarb muammolar aniqlandi.

Tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlar va metodlardan foydalanildi.

Ilmiy-nazariy tahlil: jamoatchilik nazoratining konseptual asoslari, huquqiy evolyutsiyasi, shuningdek, raqamli texnologiyalarning (blokcheyn, sun'iy intellekt) nazariy asoslari chuqur o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi (xususan, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun) hamda xalqaro tashkilotlar (OECD, UNDP, Yevropa komissiyasi) hujjatlari tahlil qilinib, nazoratning raqamli mexanizmlarga integratsiyasi asoslandi. Raqamli texnologiyalarning nazariy asoslari, ularning jamoatchilik nazoratidagi roli, afzalliklari va tahdidlariga doir mavjud ilmiy adabiyotlar va qonunchilik hujjatlari ko'rib chiqildi.

Tizimli yondashuv: davlat, fuqarolar, NNT, OAV va onlayn platformalarning o'zaro ta'siri tizimli model sifatida ko'rib chiqildi. Ular o'rtasidagi institutsional, tashkiliy va kommunikativ aloqalar aniqlanib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan raqamli jamoatchilik nazorati modeli ishlab chiqildi.

Qiyosiy tahlil: Kanada, Shvetsiya va Yevropa Ittifoqi davlatlarida shakllangan raqamli nazorat tajribalari O'zbekiston amaliyoti bilan qiyoslab tahlil qilindi. "Open Government" (Kanada), "Citizen Panels" (Shvetsiya) va "Digital Participation Framework" (YI) tizimlari asosida xorijiy yondashuvlarning kuchli jihatlari aniqlanib, milliy sharoitga mos yechimlar taklif etildi.

Empirik metodlar: amaldagi platformalar, xususan "Faol fuqaro", davlat organlarining ochiq eshituvi tizimlari, elektron murojaatlar portali va mahalliy statistik ma'lumotlar (2022–2024) asosida tahlillar o'tkazildi. Ra-

qamli texnologiyalar vazirligi, Davlat xizmatlari agentligi va Iqtisodiy tadqiqotlar instituti hisobotlari asosida fuqarolarning ishtiroki va raqamli nazorat amaliyoti baholandi.

Sotsiologik yondashuv: aholining raqamli nazoratga nisbatan ishonchi, raqamli savodxonlik darajasi, ijtimoiy faolligi va ishtirok ehtimoli xalqaro so'rovnomalar (*UN E-Government Survey 2022*, *DGI-2023*, *Gallup International*) hamda mahalliy OAV va ijtimoiy tarmoqlar monitoringi orqali o'rganildi. Raqamli nazoratni amaliyotga tatbiq etishda fuqarolarning roli va ishtirokini o'rganish maqsadida jamoatchilik fikri, ijtimoiy kayfiyat tahlil qilindi.

Tadqiqot obyektlari sifatida O'zbekiston Respublikasining davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ularning raqamli jamoatchilik nazorati doirasidagi faoliyati; fuqarolik jamiyati institutlari (NNTlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik tashabbuslari); xalqaro tajriba obyektlari sifatida esa Kanada, Shvetsiya va Yevropa Ittifoqi davlatlarining jamoatchilik nazorati amaliyotini qayd etish mumkin.

Tadqiqot predmeti – davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikda raqamli texnologiyalar vositasida jamoatchilik nazoratini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy va funksional mexanizmlari.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi fan va amaliyot uyg'unligiga asoslangan bo'lib, har bir metod o'zining aniq qo'llanish sohasi, manbasi va maqsadi bilan belgilandi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash, taklif etilgan model va mexanizmlarning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu metodologiya zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida jamoatchilik nazoratining tashkil etilishi va rivojlantirishiga tizimli, xalqaro va empirik yondashuv asosida baho berishga qaratilgan.

### Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida jamoatchilik nazoratini raqamlashtirishga doir ushbu asosiy ilmiy-amaliy natijalar qo'lga kiritildi:

*Raqamli jamoatchilik nazoratining dolzarbligi asoslandi.* Fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini kuchaytirish, davlat organlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash raqamli vositalarsiz to'liq amalga oshmaydi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar jamoatchilik nazoratining samaradorligini sezilarli darajada oshiruvchi strategik omil sifatida baholandi.

*O'zbekiston sharoitida raqamlashtirishga doir mavjud imkoniyatlar va to'siqlar aniqlandi.* Fuqarolarning raqamli savodxonlik darajasi, texnologik infratuzilmaning notekis rivojlanishi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi tizimidagi huquqiy bo'shliqlar jamoatchilik nazoratining to'liq raqamlashtirilishiga jiddiy ta'sir qiluvchi omillar sifatida qayd etildi.

O'zbekistonda 2017–2025-yillarda internet foydalanuvchilari soni 14,7 milliondan 32,7 milliongacha oshgan. Bu deyarli ikki barobar o'sish bo'lib, foydalanuvchilar sonining ko'payishi onlayn axborot almashinuvi, axborot tarqatish sur'atlari va ommaviy ta'sirchanlikning kuchayishiga olib kelmoqda.

Tabiiyki, bunday sharoitda fuqarolarning huquqlarini, jamiyat va davlat xavfsizligini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanadi. Bunday jarayonda jamoatchilik nazoratining raqamli usullaridan foydalanishda bugungi kundagi raqamli platformalarning ham o'rni muhim.

2025-yil aprel holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish quyidagicha taqsimlangan (jadval).

### Jadval

#### O'zbekiston aholisi orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi

| Platforma   | Foydalanuvchilar soni | Aholiga nisbatan ulushi |
|-------------|-----------------------|-------------------------|
| "Facebook"  | 10 096 600            | 28,9 foiz               |
| "Instagram" | 9 427 600             | 27 foiz                 |
| "Messenger" | 2 275 500             | 6,5 foiz                |
| "LinkedIn"  | 925 200               | 2,6 foiz                |

Bu ma'lumotlar "NapoleonCat" tomonidan taqdim etilgan bo'lib, ular ijtimoiy tarmoqlarning marketing API'lari asosida tuzilgan [1].

*Platformalar bo'yicha foydalanuvchi demografiyasi:*

"Facebook": foydalanuvchilarning 62,6 foizi erkaklar, 37,4 foizi ayollar. Eng katta foydalanuvchi guruhi – 18–24 yoshdagilar (3,7 mln).


"Instagram": foydalanuvchilarning 61,9 foizi erkaklar, 38,1 foizi ayollar. Eng katta foydalanuvchi guruhi – 18–24 yoshdagilar (3,9 mln).

"Telegram" O'zbekistonda eng ommabop platformalardan biri bo'lib, 2024-yil holatiga ko'ra, 18 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega. Bu platforma, ayniqsa, yoshlar va faol internet foydalanuvchilari orasida mashhur [2].

*Boshqa platformalar*

"StatCounter" ma'lumotlariga asoslan-sak (rasm), 2024-yil sentabr holatiga ko'ra, O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning bozor ulushi quyidagicha [3]:

"Instagram" – 42,4 foiz; "Facebook" – 13,49 foiz; "Twitter" – 6,16 foiz; "Pinterest" – 17,81 foiz; "YouTube" – 11,87 foiz.



Rasm. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko'rsatkichi

Aytish mumkinki, O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar keng foydalaniladigan platformaga aylandi. Bugungi kunda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda "Telegram", "Facebook" va "Instagram" eng mashhur, ommabop platformalar hisoblanadi. Yoshlar, ayniqsa, biror-bir dolzarb masala yuzasidan "Instagram" va "Telegram"dagi turli guruhlar orqali o'z fikri, qarashlarini bildirib, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkin. Bu kabi imkoniyatlar davlat rasmiy resurslarida ham mavjud.

Tadqiqot davomida xalqaro tajriba (Kanada, Shvetsiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari) asosida optimal model tavsiflandi. Ushbu davlatlarda joriy etilgan onlayn eshituv, jamoatchilik monitoringi, fuqarolik so'rovlari va blokcheyn asosidagi ovoz berish tizimlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi

mumkin bo'lgan mexanizmlar sifatida belgilash mumkin.

Blokcheyn texnologiyasi jamoatchilik nazorati uchun istiqbolli yechimdir. Ma'lumotlarning o'zgarmasligi, ochiqlik va ishonchlikni ta'minlashdagi roli tufayli ushbu texnologiya elektron eshituv, so'rovnomma va ommaviy muhokama tizimlarida qo'llanishi mumkin.

Bugungi kunda jamoatchilik nazorati subyektlarining roli kengaymoqda. Fuqarolar, NNTlari, ommaviy axborot vositalari va jamoat birlashmalari nafaqat nazorat jarayonida, balki yangi g'oyalarni ilgari surish va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

Mahalliy amaliyotda ham raqamli nazorat shakllari, jumladan:

- “Faol fuqaro” singari fuqarolik platformalari;
- ijtimoiy tarmoqlarda onlayn muhokamalar;
- davlat organlarining raqamli eshituv tizimlari;
- masofaviy jamoatchilik fikrini o‘rganish mexanizmlari shakllanmoqda.

Yuqoridagilarni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- raqamli jamoatchilik nazoratini mustahkamlovchi maxsus qonun qabul qilish;
- jamoatchilik nazorati platformalarining huquqiy maqomini aniqlash;
- fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqish;
- davlat organlari uchun raqamli hisobdorlik va ochiqlik mezonlarini belgilovchi reglamentlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

Shunday qilib, tadqiqot davomida O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish, fuqarolik jamiyatining salohiyatini kuchaytirish hamda davlat va jamiyat o‘rtasida yangi ishonch makonini yaratish yo‘lida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Bugungi kunda butun dunyoda deyarli barcha sohalarda raqamlashtirish va tarkibiy jarayonlarni elektronlashtirish amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, yangi davrni raqamlashtirishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Hozirgi vaqtda hayotimizda raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya muayyan o‘rin egallab ulgurdi. Bu omillar, albatta, O‘zbekiston uchun muhim hisoblanadi.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishning jamoatchilik nazoratidan ko‘ra samaraliroq vositasi yo‘q. Davlat idoralari va mansabdor shaxslar harakatlaridan ko‘ra, uni ta‘minlashga faqat fuqarolarning o‘zlari qonunbuzarliklarga toqat qilmaydigan muhit yaratilgandagina zarurat ortadi va o‘z-o‘zidan fuqarolik jamiyatining jamoatchilik nazorati ta‘minlangan o‘ziga xos shakliga o‘tiladi. Ja-

moatchilik nazorati islohotlarni chuqurlashtirish fuqarolarning tafakkurini o‘zgartirish va ularning mas‘uliyatini oshirishning zaruriy shartidir. Shuning uchun har bir fuqaro qabul qilingan qonun hujjatlari to‘g‘risida xabarador bo‘lishi, hujjatlarning, ayniqsa, inson huquqlari bilan bog‘liq hujjatlarning mohiyatini aniq tushunishi va ularning hayotidagi rolini his qilishi kerak.

Raqamlashtirish ijtimoiy rivojlanishni boshqarish tizimida yangi ijtimoiy-texnologik asosni shakllantirish jarayoni sifatida davlat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik uchun ilgari mavjud bo‘lmagan imkoniyatlarni yaratadi. U yuqoridan pastga (ochiq raqamli hukumat konsepsiyasi) va pastdan yuqoriga (internet-demokratiya) boshqaruv tizimlarida samarali mexanizmlarni tashkil etishning asosi va ayni paytda rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib, maqsadli munosabatlarni rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Fuqarolar faolligini va ularning davlat ishlariga jalb etilishini rag‘batlantirishda *internet-demokratiya* g‘oyalari tarafdorlari bu hodisani jamiyatning demokratik rivojlantirishidagi yangi bosqich deb hisoblaydilar, chunki zamonaviy axborot texnologiyalari fuqarolarning o‘zini o‘zi tashkil etishini, ularning davlat organlari bilan bevosita aloqalarini rag‘batlantiradi, ularni davlat boshqaruvi jarayoniga jalb etadi hamda davlat va jamiyat bilan aloqa samaradorligini oshirishni ta‘minlaydi”.

Raqamli kelajakni rivojlantirish jarayonida aholining turli qatlamlari manfaatlari to‘qnash keladi. Bir tomondan, ularning ijtimoiy mavqeyini va turmush sharoitini yaxshilaydigan ijtimoiy guruhlar shakllanadi. Boshqa tomondan, ijtimoiy qatlamlarning paydo bo‘lish jarayoni mavjud bo‘lib, ularning pozitsiyasi raqamlashtirish jarayoni chuqurlashishi bilan yomonlashishi mumkin. Bularning barchasiga faol choralar ko‘rilmasa, jamiyatda ayrim muammolarni keltirib chiqarish ehtimoli ham yuzaga keladi.

Yangi raqamli aholi qatlamlarini shakllantirish jarayoni hokimiyat va boshqaruv iyerarxiyasida o'z o'rniga ega bo'lgan o'ziga xos tizimni shakllantiradi. Bu esa doimiy da'volarga ega, advokat javobni talab qiladigan holat kabi tushunilishi mumkin. Jamiyatni raqamlashtirishning ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy salohiyati hali to'liq yuzuga kelgani yo'q. Shu bois, sodir bo'layotgan jarayonlarni ilmiy tahlil qilishga katta talab bor. Raqamlashtirishni shakllantirish va rivojlantirish sharoitida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning keng qamrovli jarayonini baholovchi ekspertlarning sotsiologik so'rovi shunga qaratilgan [4, 21-b.].

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik nazorati davlatning samarali ishlashiga hissa qo'shadi, barcha darajadagi hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshiradi, qonunlarning ishlashini, inson huquqlari va erkinliklari hurmat qilinishini ta'minlaydi. Davlat jamiyatning fikr-mulohazalari yordamida fuqarolarning konstruktiv takliflarini asos qilib olib, ularning ishonchi va qo'llab-quvvatlashiga tayangan holda respublikada zarur islohotlarni amalga oshiradi. Bu raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratish va rivojlantirishga, odamlarning turmush darajasini oshirishga, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga yordam beradi. Bu o'rinda, albatta, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish muhim yo'nalishlardan hisoblanadi.

Mantiqan jamoatchilik nazorati unga qiziquvchilar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun jamoatchilik nazorati subyektlari birinchi navbatda *fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va kasaba uyushmalaridir*. Ular davlat organlari tomonidan qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish bo'yicha tegishli choralarni ko'radilar.

Subyektlar (fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar) hamda jamoatchilik na-

zorati obyektlari (davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati) aniqlandi. Uning shakllari, masalan, davlat idoralariga murojaat va so'rovlar ularning ochiq kollegial yig'ilishlarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamalari va tinglovlari, monitoring, ekspertiza, shuningdek, davlat hokimiyati organi vakillarining ma'lumotlarini eshitish va boshqa xususiyatlar bilan belgilanadi.

Jamoatchilik nazorati faoliyati va uning tarkibiy sohalarini raqamlashtirish – "raqamli asrda davlat sektorni o'zgartirish" doirasida eng muhim va ustuvor ijtimoiy ahamiyati yuqori sohalarning vazifalaridan hisoblanadi. Bunda, albatta, jamoatchilik nazoratida hamda uning faol loyihalarining shakllarida eng yangi texnologiyalardan, ya'ni raqamlashtirishdan foydalanish va uni jamoatchilik faoliyatida bosqichma-bosqich qo'llab borish muhim hisoblanadi.

Jamiyatni raqamlashtirish – yangi haqiqat. Raqamlashtirish hayotimizning ajralmas qismidir va turli mamlakatlar mutaxassislarining fikriga ko'ra, yangi raqamli formatlar tendensiyasi kuchayishda davom etmoqda.

Bu o'rinda jahon miqyosidagi qarashlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, fuqarolik jamiyati tadqiqotchilarining IX xalqaro konferensiyasining ikkinchi kunida "Raqamli asrda uchinchi sektorni o'zgartirish" mavzusi muhokamasi raqamlashtirish kontekstida tarmoqlararo hamkorlikka, ko'ngilli va faol loyihalarda eng yangi texnologiyalardan foydalanishga, NNT va fuqarolik jamiyati amaliyotini o'zgartirishga, raqamlashtirish ta'siri ostida NNTlarining davlat boshqaruv jarayonlarini tartibga solish usuli sifatidagi o'rniga bag'ishlandi [5, 40-b.]. Xususan, ushbu konferensiya doirasida raqamlashtirish sharoitida tarmoqlararo sheriklik, uning roli zamona-viy jamiyat oldida turgan ijtimoiy muammolarning tobora murakkablashib borayotgan sharoitida ortib borishi va bunda jamoatchilik nazoratining naqadar muhimligiga katta e'tibor berildi.

Ixtisoslashgan texnik adabiyotlarda axborot texnologiyalari “kompyuter texnologiyalaridan foydalanish asosida axborotni yig‘ish, saqlash, to‘plash, qidirish, qayta ishlashning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan usullari tizimi” [6, 110-b.] deb ta‘riflangan bo‘lsa, boshqa manbalarda axborot texnologiyalarining maqsadi axborot ishlab chiqarish ekanligi, u har qanday harakatni (boshqaruv qarorini) bajarish uchun insoniy tahlil va uning asosida qarorlar qabul qilish uchun xizmat qilishi aytiladi [7, 104-b.].

Axborot texnologiyalari tasniflaridan birida qayd etilishicha, hal qilinayotgan vazifalar sinfiga ko‘ra ma‘lumotlarni qayta ishlash uchun, boshqaruv uchun, ofislarni avtomatlashtirish uchun, qarorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun axborot texnologiyalari farqlanadi [8, 87-b.].

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ko‘p jihatdan – uni qabul qilish va tahlil qilishdan tortib, tegishli subyektlarga yetkazishgacha axborot bilan ishlashga bog‘liq. Axborot texnologiyalarining yuqoridagi har bir turi jamoatchilik nazorati doirasida muayyan muammolarni hal qilish uchun qo‘llanadi. Davlat organlari faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, ularni jamiyat manfaatlari bilan taqqoslash, prognozlar va rejalarni ishlab chiqish, shuningdek, tuzatish bo‘yicha takliflar hamda boshqa jarayonlarni bunga misol sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, jamoatchilik nazoratini boshqaruv axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda amalga oshirish yanada samarali bo‘lib, ular quyidagi vazifalarni kompleks hal qilishga qaratilgan: nazorat obyektining rejalashtirilgan holatini baholash, rejalashtirilgan holatdan chetga chiqishlarni va umumiy fikrni baholash, og‘ish va asl jarayonlardan chalg‘ish sabablarini aniqlash, ehtimoliy yechimlar va harakatlarni tahlil qilish [9, 128-b.].

Jamoatchilik nazoratini har tomonlama raqamlashtirishda ushbu dolzarb masalalarga:

*birinchidan*, bugungi kundagi jamiyatning dunyoqarashi va fikrlashi raqamli jamoatchilik nazoratining mexanizmlaridan foydalanib uni amalga oshirishga qay daraja qodirligi va bunda asosiy e‘tiborni birinchi navbatda nimaga qaratishimiz lozimligi;

*ikkinchidan*, davlat organlarining umumiy faoliyati ustidan doimiy va faol bo‘lgan raqamli jamoatchilik nazorati ta‘minlanishi uchun qanday zamonaviy mexanizmlardan foydalanishimiz kerakligi;

*uchinchidan*, raqamli jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy shakllari nimadan iborat bo‘lishi, bunda hozirgi vaqtda dolzarb hisoblangan sun‘iy intellekt qanchalik ahamiyatli hisoblanishi;

*to‘rtinchidan*, yangi zamonaviy raqamli dunyoda jamoatchilik nazoratining muhimligi va dolzarbligini tushunish bugungi kunda qay darajada ekanligi va bunda davlatning qanday funksiyalari bo‘lishi lozimligi;

*beshinchidan*, raqamli jamoatchilik nazorati va uning tashkiliy shakllarida OAVning roli qandayligi va uning omillarini qaysi jihatdan tartibga solib borish lozimligiga e‘tibor qaratish muhimdir.

Bugungi kunda dolzarb hisoblangan ushbu masalalar va ularning yechimlarini topishda xalqaro tajribani o‘rganib ko‘rish ahamiyat kasb etadi. Sababi jamoatchilik nazorati va uning mexanizmlarini raqamlashtirish bugun ko‘plab davlatlarda asosiy muhokama markaziga aylanib ulgurgan. Jumladan, raqamli jamoatchilik nazorati bosqichi rivojlanayotgan davlatlardan ba‘zilarini ko‘rib o‘tsak:

1. Kanadada jamoatchilik nazorati hamda ma‘lumotlar himoyasi borasida ko‘pchilik bugungi kunda asosan raqamlashtirishdan foydalanadi. Kanada elektron raqamlashtirish markazi ma‘lumotlariga ko‘ra, mahalliy davlat organlari o‘z boshqaruv qarorlarini ixtiyoriy ravishda aynan o‘zlari jamoatchilik nazorati e‘tiboriga havola etib, so‘ng ularning xulosalari olingan qarorlarnigina ijroga yo‘naltirish amaliyoti keng tarqalgan.

2. Shvetsiya davlatida qo'llab-quvvatlash tarmoqlari to'liq raqamlashtirilgan. Davlat organlari ushbu tarmoqlar orqali kelayotgan jamoatchilik nazoratining qarashlarini birinchi navbatdagi ish tartibiga aylantirmoqda. Ya'ni xalq nimani muhim deb hisoblasa, davlat organlari asosan ushu mavzudagi ishlarni takomillashtirish ustida ishlamoqda. Bunda asosan ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlash, raqamlashtirish va nazorat qilishda munosib resurslarni taqsimlashga muvofiq tadbirlar birinchi navbatda inobatga olinadi.

3. Yevropa Ittifoqi davlatlarida jamoatchilik nazorati hamda ma'lumotlar himoyasi sohasida bir necha ma'muriyat organi mavjud bo'lib, bugungi kunda ularning ish tartibidagi asosiy masala ham jamoatchilik nazoratini raqamlashtirishga qaratilgan. Asosan jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi kabi normalar Yevropa davlatlari hayotiga joriy etilgani nuqtayi nazaridan ham Yevropa Ittifoqi davlatlari ushbu borada yetakchilik qiladi [10, 18-b.].

Bu faqat ba'zi davlatlardagi misollardir, har bir davlatning jamoatchilik nazorati va uning raqamlashtirilishi, ma'lumotlar himoyasi sohasidagi o'zgarishlar hamda tizim texnologiyalari qonunchilik va siyosiy muhitga mos keladigan tarzda yangilanib bormoqda.

Ushbu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-dekabrda "Tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar to'g'risida"gi videosektor yig'ilishida [11] ham ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlab o'tish lozim.

Bugungi kunda kundalik hayotimizda bo'layotgan o'zgarishlar ham barcha tarmoqlarda raqamlashtirishning naqadar hayotiy dolzarb va muhimligini ko'rsatib turibdi. Misol uchun, agar ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib bormasak, kommunal sohadagi rejali uzilishlar, yo'llarning ma'lum bir qismidagi vaqtinchalik cheklovlar kabi yangiliklardan bexabar qolamiz, bu esa aynan o'zimiz ishti-

rok etadigan ma'lum bir ijtimoiy jarayonlarda qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Bu tegishli tashkilotlarning o'z vazifalariga sovuqqonlik bilan qarashi va jamoatchilik oldida hisobdor emasligi haqidagi noto'g'ri tasavvurlarga sabab bo'ladi. Aslida esa bu o'rinda muammo sababi fuqaroning o'zi raqamli texnologiyalardan foydalanishni bilmagani, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar bilan tanishib bormayotgani va bugungi kun bilan hamnafas ildamlamayotganiga borib taqaladi.

Hozirgi bosqichda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi ularga raqamli transformatsiya jarayonlarining sezilarli ta'siri bilan tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalar inson hayotining ko'plab jabhalarida, jumladan, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda keng qo'llanadi, bunda jamoatchilik nazorati alohida o'rin tutadi.

Ushbu jarayonning global tabiatiga qaramay, raqamli transformatsiya nisbatan yangi hodisa bo'lib, uning aniq ta'rifi hali ishlab chiqilmagan [12, 52-b.]. V.V. Burov, M.V. Petrov, M.S. Shklyaruk, A.V. Sharov kabi olimlarning fikriga ko'ra, raqamli transformatsiya – jarayonlarni amalga oshirish mexanizmlari sifatida keng tarqalgan raqamli jarayonlarni qayta tashkil etish, jarayonlarning xususiyatlarini yaxshilash (ularni bajarish vaqtini qisqartirish, kichik jarayonlarning butun guruhlarini tashkil qilish, ishlab chiqarishni ko'paytirish, jarayonlarni bajarishga sarflanadigan resurslarni qisqartirish) hamda tubdan yangi sifat va xususiyatlar paydo bo'lishi (inson aralashuvisiz avtomatik qaror qabul qilish va h.k.) ning shakllanishidir" [13, 71-b.].

Yuqoridagi pozitsiyani tahlil qilish raqamli transformatsiyaning asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

– birinchidan, raqamli transformatsiya – jarayon va uning raqamli aks etish xususiyati;

– ikkinchidan, bu jarayon va uning bosqichlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi;

– uchinchidan, raqamli transformatsiyaning maqsadi ta'sir obyektining xususiyatla-

rini sezilarli darajada o'zgartirish va uni yangi bosqichga ko'tarishdan iboratdir.

Jamoatchilik nazorati jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatiga taalluqli ma'lumotlarni to'plash, faktlar hamda holatlarni aniqlash, uning jamiyat manfaatlariga muvofiqligini tekshirish, shuningdek, aniqlangan chetlanishlarni bartaraf etish choralari ko'rish bo'yicha harakatlar majmuidan iborat alohida tarmoqdir.

Raqamli transformatsiya jamoatchilik nazorati shakllari va usullariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki aynan ularda uning o'ziga xos mazmuni ifodalanadi.

Ushbu transformatsiyaning asosiy bo'g'ini raqamli texnologiyalardir. "Texnologiya" atamasining ma'nosi "ishlab chiqarishning ma'lum bir tarmog'ida materiallarni qayta ishlash yoki shu jarayonlar yig'indisi, ishlab chiqarish usullarining ilmiy tavsifi" [14, 32-b.] sifatida ochiladi. Ba'zi olimlar texnologiyani "ma'lum bir amaliy masalani muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradigan usullar, vositalar yoki ularning kombinatsiyasi" deb ta'kidlaydilar [15, 74-b.].

Fikrimizcha, jamoatchilik nazoratidagi raqamli transformatsiyaning asosiy xususiyatlari yangi texnologiyalarga ochiqlik va innovatsiyalarni izlash, fuqarolarning yuqori darajadagi faolligi va kundalik hayotdagi jamoatchilik nazoratida ishtiroki, jamoatchilik nazoratida fuqarolar ishtirokining davlat tomonidan rag'batlantirilishi, qo'llab-quvvatlanishi, jamoatchilik nazoratida barcha jarayonlar va ma'lumotlar tahlilini raqamlashtirish, raqamli jamoatchilik nazoratini keng ko'lamda qo'llash va doimiy rivojlanish, butun raqamli ekotizimini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar majmuidan iborat, deb ayta olamiz. Jamoatchilik nazoratining yuqoridagi ta'rifidan kelib chiqqan holda uni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish uchta asosiy yo'nalishda olib borilishi mumkin deb hisoblaymiz:

– jamoatchilik nazorati subyekti nazorat qilinadigan obyekt faoliyati to'g'risida axborot oladi;

– nazorat qilinadigan obyekt faoliyatining jamoatchilik manfaatlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida jamoatchilik nazorati subyekti tahlil qiladi va prognozlab boradi;

– jamoatchilik nazorati subyekti tomonidan aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish choralari ko'riladi va yakuniy jamoatchilik xulosasi beriladi.

Har bir yo'nalish bo'yicha raqamli texnologiyalardan foydalanish jamoatchilik nazoratining o'ziga xos shakllari va usullari, shuningdek, raqamli texnologiyalarning o'z funksional imkoniyatlari bilan belgilanadi hamda uning yanada jozibadorligini ta'minlaydi. Raqamli texnologiyalar jamoatchilik nazorati jarayonlariga integratsiya qilinadi va takomillashtirib boriladi.

Jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish, uning maqsad va vazifalariga erishish uchun foydalaniladigan raqamli texnologiyalardan biri blokcheyn texnologiyasidir. Adabiyotda blokcheyn texnologiyasi "barcha tranzaksiyalarning ommaviy reyestri yoki raqamli hodisalar, o'z navbatida, amalga oshirilgan va ishtirokchi tomonlar o'rtasida taqsimlangan ma'lumotlar bazasining bir turi" sifatida taqdim etilgan [16, 68-b.].

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, blokcheyn texnologiyasining afzalligi – "ma'lumotlarni asl ko'rinishida saqlashning to'liq kafolati bilan taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ma'lumotlarni saqlash va undan foydalanish" ushbu ma'lumotni o'zgartirish, almashtirish yoki undan chiqarib olish alohida tarzda amalga oshirib bo'lmasligini anglatadi. Blokcheyn nomarkazlashtirish, kriptografiyadan foydalanish, avtonomiya, konsensus mexanizmlarining mavjudligi, blok zanjirining anonimligi va shaffofligi bilan ajralib turadi" [17, 91-b.]. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanishning umumiy amaliyotlari elektron ovoz berish va kraudsorsing loyihalaridir. Ushbu texnologiya ma'lumotlarning

o'zgarmasligi va uning xavfsizligini tasdiqlash zarur bo'lganda, jamoatchilik nazorati shakllarini amalga oshirishda ham qo'llanishi mumkin.

Jamoatchilik nazoratida blokcheyn texnologiyasidan foydalanishga misol sifatida Moskva shahrida o'tkazilgan "Faol fuqaro" loyihasini keltirish mumkin. Moskva shahri meriyasining 2018-yil 27-fevraldagi "Faol fuqaro" loyihasi to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlangan "Faol fuqaro" loyihasi to'g'risidagi nizomga muvofiq [18, 95-b.] loyihada Moskva shahrining ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan belgilangan vakolatlar va ularga bo'ysunadigan tashkilotlar tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda Moskva aholisining fikrlarini hisobga olgan holda jarayonlarni belgilash ko'zda tutilgan. Loyiha doirasida Moskva shahrining ijro etuvchi hokimiyat organlari, ularga bo'ysunuvchi tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarga nisbatan ovoz berish, so'rovnomalar o'tkazish, loyiha ishtirokchisi bo'lgan fuqarolarning fikrlari va (yoki) baholarini to'plash amalga oshirilgan. Moskva shahrining butun hududida shahar aholisining manfaatlariga daxldor bo'lgan ayrim masalalar va mavzular bo'yicha ushbu yangi tartib qo'llab borilgan.

Ushbu loyihada qo'llanadigan blokcheyn texnologiyasi ovoz berish jarayonini kuzatish, real vaqt rejimida savollarning davom etishi va yangi ovozlarning paydo bo'lishini ko'rish imkonini beradi, barcha ma'lumotlarning qo'shimcha nazorati hamda ochiqligini ta'minlaydi, ularning paydo bo'lish xronologiyasini tekshirish imkoniyatini beradi. Ovoz berish va ularning o'ziga xosligini tasdiqlash, turli masalalar bo'yicha ovozlarning taqsimlanishini yuzasidan xolis jamoatchilik nazoratining raqamli ko'rinishi o'z samarasini bergan.

"Faol fuqaro" loyihasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, loyihada Moskva shahrining 6 millionga yaqin fuqarosi ishtirokchi sifatida qatnashdi. Misol uchun, uning bugungi kun-

gacha olti yillik faoliyati davomida 5,4 mingga yaqin ovoz berish va jamoatchilik fikrini eshitish jarayonlari o'tkazildi, 1,4 mingdan ortiq qarorlar ijro etildi [19, 18-b.]. Loyiha doirasida aholining e'tiboriga obodonlashtirish, shahar klinikalarining ishlashi, Moskva metro bekati uchun dizaynni tanlash kabi turli masalalar yetkaziladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tgan misollarimizdan ham ko'rinib turibdiki, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda raqamli texnologiyalarning xususiyatlaridan foydalanish har jihatdan samarali bo'ladi. Shu bilan birga, davlat idoralari nafaqat fuqarolarga, balki o'zlariga qarshi ham tanqidiy mulohazalarni adolatli va xolisona ko'rib chiqishga chaqirilganini unutmazlik kerak. Hududlarimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlar, qurilish va obodonlashtirish ishlari hamda aholi hayoti uchun muhim bo'lgan har qanday qarorlar mahalliy aholi bilan muhokama qilinishi va jamoatchilik ekspertizasidan o'tishi har tomonlama muhim deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, jamoatchilik nazorati, birinchi navbatda, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar faoliyati nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi juda muhim. Huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar tizimida qonun ustuvorligi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning muhim elementiga aylanishi kerak. Shu sababli, sudlar va tergov organlari muayyan ish bo'yicha qaror qabul qilishda fuqarolarning jamoaviy murojaatlariga javoban tushuntirishlar va huquqiy sharhlar berishini ta'minlash asosiy omillardan biridir va bunga normativ jihatdan *huquqiy asosni belgilash taklif etiladi*. Zero, bu sohada jamoatchilik nazoratini amalga oshiradigan va qat'iy talab qiladigan aynan fuqarolarning o'zidir.

Bu o'rinda yechimlardan yana biri sifatida aytish mumkinki, loyiha ishtirokchilarini rag'batlantirish jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning raqamli jamoatchilik nazoratini yaratishning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Ballar va ular orqali tur-

li xizmatlardan foydalanish, foydali esdalik sovg'alarini tashkil etish jamoatchilik nazoratida aholining yanada ko'proq hamda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda raqamlashtirish, undagi davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ustidan jamoatchilik nazorati sohasidagi asosiy masalalarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

– raqamli makonda joylashtirilgan davlat xizmatlari, madaniy qadriyatlar, ta'lim, ma'rifatga oid va boshqa platformalar, xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatining yo'qligi, aholi ushbu jarayonlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yetarli darajada xabardor emasligi, fuqarolarda va bevosita ushbu jarayonlar bilan ishlovchi mas'ul davlat xizmatchilarida ular bilan ishlash ko'nikmalarining yetishmasligi va ko'pincha bu yo'nalishlarga bee'tibor qarash va boshqalar;

– fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini ruxsatsiz yig'ish va ulardan foydalanish;

– turli raqamli xizmatlardan foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari bazalarini ularning manfaatlariga mos kelmaydigan maqsadlar uchun uzatish va ular nomidan foydalanish amaliyoti;

– raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar uchun foydalanuvchilarning manfaatlariga mos kelmaydigan maqsadlarda ulardan keyingi foydalanish uchun turli mezonlarga muvofiq reyting tizimlarini yaratish;

– raqamli makon vositalaridan foydalangan holda fuqarolarning jamoatchilik fikri va xatti-harakatlarini manipulyatsiya qilish holatlari;

– raqamli vositalardan foydalangan holda davlat va qonun bilan himoyalangan boshqa sirlarni oshkor qilish uchun sharoit yaratish, buning to'liq himoya qilinmagani;

– raqamli hujjatlarni noqonuniy ishlab chiqarish, ulardan foydalanish va savdosi, raqamli firibgarlik, raqamli ekstremizm, shuningdek, raqamli sohada jinoyatchilikning boshqa o'ziga xos shakllari tarqalishi kabilar.

Ushbu tahdidlarning qaysidir ko'rinishiga bevosita o'zimiz ham kundalik hayotimizda duch kelamiz. O'ylashimizcha, jamoat nazoratini raqamlashtirishning yangi yo'nalishlarini loyihalashda ham, mavjudlarining ishlashini ta'minlashda ham yuqoridagi eng dolzarb masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda, albatta, ta'kidlash joizki, jamoatchilik nazoratining ushbu alohida sohasi – raqamlashtirishning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish kerak. O'zbekiston Respublikasida mobil qurilmalardan foydalanish va undan aynan bir foydalanuvchining jamoatchilik ichida o'z fikrini ifoda etishi, buni himoya qilish holatining mavjudligi hamda rivojlanib borayotgani eng muhim jihatlardan hisoblanadi. Shuningdek, ushbu sohadagi mavjud muammolarni ham esdan chiqarmaslik zarur. Misol uchun, fuqarolar raqamli qurilmalardan foydalana olmasa, begona uchinchi shaxslar uning nomidan foydalanishi, internetga bepul kirish imkoniga ega emasligi, jamoatchilik nazorati mavjud raqamli vositalaridan mustaqil foydalana olishi uchun davlat yaratib berishi lozim bo'lgan imkoniyatlar bilan bog'liq asosiy muammolar, ularni bosqichma-bosqich hal etish zaruriyatini ham unutmash lozim.

Raqamli jamoatchilik nazorati tizimi samarali ishlashi uchun shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Misol uchun, 2023-yilda O'zbekiston axborot xavfsizligi sohasida 870 dan ortiq kiberhujum holatlari aniqlangan bo'lib, ularning 60 foizdan ortig'i fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlariga qaratilgan. Bunday sharoitda jamoatchilik nazorati platformalarida ma'lumotlarni shifrlash, autentifikatsiya mexanizmlari va foydalanuvchi roziligi asosida ma'lumot yig'ish tartiblarini qonuniy joriy etish talab etiladi.

*Raqamli nazorat samaradorligini o'lchovchi ko'rsatkichlar*

Hozirgi kunga qadar raqamli jamoatchilik nazoratining samaradorligini baholash

bo'yicha yagona indikatorlar tizimi mavjud emas. Shu bois quyidagi taklif etilayotgan ko'rsatkichlar asosida monitoring yuritilishi mumkin:

– ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar ishtiroki soni va ularning javoblari (eng ko'p repost, izoh, ovoz);

– davlat tashkilotlari tomonidan ochiq muloqotlar natijalarida ko'rilgan o'zgarishlar soni;

– raqamli savodxonlik darajasi va aholining tayyorgarligi.

*UN E-Government Survey (2022)* ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda aholining 52 foiz qismi raqamli xizmatlardan foydalanishni biladi, biroq atigi 34 foiz qismida raqamli ishonch (*data trust*) mavjud. Bu raqamlar raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha maxsus milliy dasturlar zarurligini ko'rsatadi.

Yoshlar orasida bu ko'rsatkich yuqori bo'lsa-da, 45 yoshdan yuqori aholida bu daraja sezilarli darajada past. Demak, raqamli jamoatchilik nazorati umumiy yondashuv emas, balki segmentatsiyalangan, maqsadli o'qitish asosida joriy etilishi kerak.

### **Xulosalar**

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini samarali raqamli shaklda rivojlantirish uchun huquqiy, ijtimoiy va texnik infratuzilmaning uyg'unligini ta'minlash zarur. Raqamli texnologiyalar fuqarolarning davlat boshqaruvi jarayonlarida ishtirok etishini kuchaytiradi, davlat organlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi. Shu bilan birga, aholining raqamli savodxonligini oshirish va raqamli nazoratda ishtirok etishiga doir motivatsion va institutsional mexanizmlarni shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotda ilgari surilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

– raqamli jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini mustahkamlash, xususan, ushbu yo'nalishda alohida qonun hujjatlarini ishlab chiqish zarur;

– jamoatchilik ishtirokini rag'batlantiruvchi raqamli platformalarni texnik jihatdan takomillashtirish va ularning xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi;

– fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha samarali tartiblarni joriy etish, shu jumladan, ma'lumotlarni shifrlash va rozilik asosida ishlov berish mexanizmlarini yaratish lozim;

– aholi orasida raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha milliy miqyosdagi uzluksiz o'quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur;

– "Raqamli jamoatchilik nazorati"ning O'zbekiston sharoitiga mos milliy modelini ishlab chiqish, bunda xalqaro tajribani inobatga olgan holda innovatsion va inklyuziv yondashuvlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish orqali fuqarolik jamiyatining institutsional salohiyatini mustahkamlash, ishonch muhitini rivojlantirish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Shu bilan birgalikda, birinchi navbatdagi shartlarning barchasi bajarilgan taqdirdagina umumiy jarayonlarda samarali raqamli jamoatchilik nazorati paydo bo'lishini kutishimiz mumkin va bu ijtimoiy vaziyatlardan kelib chiquvchi tabiiy jarayon hisoblanadi.

Bugungi kunda raqamlashtirish va uning imkoniyatlari asosida jamiyatda mavjud barcha sohalar keng ko'lamda rivojlanmoqda. Jumladan, sog'liqni saqlash, ekologiya va atrof-muhit, davlatning moliyaviy xarajatlari boshqa yana ko'plab sohalarda davlat organlari hamda muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati yoki uning turli shakllari borligini ko'rish mumkin. Bu, albatta, raqamli jamoatchilik nazorati rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli texnologiyalar jamiyat tomonidan tegishli organlar faoliyati ustidan nazoratni tashkil etish uchun interaktiv imkoniyatlardan amalda foydalanishni belgilaydi. Shu sababli, raqamli jamoatchilik nazorati-

ning rivojlanishi keng jamoatchilik uchun nazorat faoliyatida ishtirok etish imkoniyatini soddalashtirish, davlat apparati faoliyatining haqiqiy shaffofligini ta'minlash va natijada davlat xizmatchilarining jamoatchilik oldidagi mas'uliyatini oshirish bo'yicha ijtimoiy jarayonlarning yanada rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ushbu samaradorlik bosqichiga erishish uchun aholining raqamli savodxonligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy jarayonlar va ularni sohalaridagi raqamli jamoatchilik nazoratida ishtirok etish imkoniyatlari to'g'risida xabardor qilish, raqamli vositalar interfeyslarini soddalashtirish ustida ishlash ham eng muhim vazifalardan biri bo'lishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamoatchilik nazoratining raqamlashtirilishi kengayishi bilan quyidagilarni ham taklif etamiz:

- huquqiy-ijtimoiy sohada insonning asosiy huquq va erkinliklari ifoda etilishi;
- jamoatchilik tuzilmalari va boshqa shakldagi jamoatchilik nazorati subyektlarining o'z yo'nalishlarida faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishining asosiy yo'nalishlarini tartibga solish hamda uning salbiy omillaridan himoya qilish;

– jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayonlari natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni o'z vaqtida huquqiy tartibga solish va bunga oid normalarni birlashtirishni davlat bugungi kundagi eng muhim vazifalardan deb belgilashi zarur.

Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik Palatasi bu jarayonlardagi muammolarni o'rganib, unga yechim topishi va huquqiy jarayonlarni muvofiqlashtirib turuvchi asosiy regulyator sifatida maydonga chiqishi hamda birinchi navbatdagi dolzarb masalalarga yechim berishi lozim deb hisoblaymiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tgan turli yo'nalishlardagi tadqiqotimizdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, jamoatchilik nazoratini tashkiliy jihatdan raqamlashtirish oldida turgan muammolar va ularning yechimlari har jihatdan ko'plab jarayonlarni qamrab olib, asosiy bosqichlar va oldimizda turgan ustuvor vazifalarni belgilab beradi. Bu o'rinda mamlakatimizda ham ushbu jarayonlarni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun yangi va o'ziga xos samarali mexanizmlardan foydalanish, shu orqali yangi o'ziga xos "Raqamli jamoatchilik nazoratining o'zbekona modelini" yaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

## REFERENCES

1. Social media users in Uzbekistan. Available at: [https://napoleoncat.com/stats/social-media-users-in-uzbekistan/2024/?utm\\_source=](https://napoleoncat.com/stats/social-media-users-in-uzbekistan/2024/?utm_source=)
2. Most prevalent social sites in Uzbekistan. Available at: [https://brightuzbekistan.uz/en/most-prevalent-social-sites-in-uzbekistan/?utm\\_source=](https://brightuzbekistan.uz/en/most-prevalent-social-sites-in-uzbekistan/?utm_source=)
3. Social Media Stats Uzbekistan. Available at: [https://gs.statcounter.com/social-media-stats/all/uzbekistan/202409?utm\\_source=](https://gs.statcounter.com/social-media-stats/all/uzbekistan/202409?utm_source=)
4. Kak zhivesh', Rossiya? [How are you, Russia?]. Moscow, 2020. Available at: [https://xn--h1aauh.xn--p1ai/wp-content/uploads/2020/12/%D0%94%D0%A7\\_2020.pdf?utm\\_source=](https://xn--h1aauh.xn--p1ai/wp-content/uploads/2020/12/%D0%94%D0%A7_2020.pdf?utm_source=)
5. The OECD Framework for digital talent and skills in the public sector. OECD Working Papers on Public Governance. Paris, OECD Publ., 2021, no. 45. DOI: 10.1787/4e7c3f58-en.
6. Demidov L.N., Ternovskov V.B., Grigor'yev S.M., Krahma D.V. Informatsionnyye tekhnologii [Information Technology]. Moscow, Knorus Publ., 2021, p. 16.
7. Catálogo de Competencias Laborales [Catalog of Work Competencies]. Columbia, 2018. Available at: <https://www.funcionpublica.gov.co/documents/418537/616038/RESOLUCI%C3%93N+DE+COMPETENCIAS+FUNCIONALES.pdf/c13f04b8-02e0-908a-b831-ef15f80da4ab>

8. El'kina V.D. *Informatsionnyye tekhnologii v yuridicheskoy deyatel'nosti* [Information technology in legal activities]. Moscow, Prospekt Publ., 2013, p. 23.
9. Tsifrovaya transformatsiya i zashchita prav grazhdan v tsifrovom prostranstve: doklad Soveta pri Prezidente Rossiyskoy Federatsii po razvitiyu grazhdanskogo obshchestva i pravam cheloveka [Digital transformation and protection of citizens' rights in the digital space: report of the Council under the President of the Russian Federation for the Development of Civil Society and Human Rights]. Website of the Council under the President of the Russian Federation for the Development of Civil Society and Human Rights. Available at: [http://president-sovet.ru/docs/doclad\\_SPCh.docx](http://president-sovet.ru/docs/doclad_SPCh.docx)
10. Data protection in the EU. Available at: [https://commission.europa.eu/law/law-topic/data-protection\\_en](https://commission.europa.eu/law/law-topic/data-protection_en)
11. Raqamlashtirish sohasidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi [Current issues in the field of digitalization were discussed]. Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/6938>
12. Lisina N.S. Digital Transformation and Public Control: Perspectives of Influence. *Actual Problems of Russian Law*, 2022, vol. 17(6), pp. 32–40.
13. Burov V.V., Petrov M.V., Shklyaruk M.S., Sharov A.V. Gosudarstvo-kak-platforma: podkhod k realizatsii vysokotekhnologichnoy sistemy gosudarstvennogo upravleniya [State-as-a-Platform: An Approach to the Implementation of a High-Tech Public Administration System]. *Public Service*, 2018, vol. 20, no. 3, p. 71.
14. Ozhegov S.I. *Tolkovyy slovar' russkogo yazyka: okolo 100 000 slov, terminov i frazeologicheskikh vyrazheniy* [Explanatory Dictionary of the Russian Language: approx. 100,000 words, terms and phraseological expressions]. Moscow, Peace and Education, 2018, p. 1188.
15. Rozhkova M.A. LegalTech, FinTech, RegTech etc.: pravovyye aspekty ispol'zovaniya tsifrovyykh tekhnologiy v kommercheskoy deyatel'nosti [LegalTech, FinTech, RegTech etc.: legal aspects of using digital technologies in commercial activities]. Moscow, Statut Publ., 2021, p. 15.
16. Shulikov A.O., Sanakov I.K. *Primeneniye blokcheyna v sisteme gosudarstvennogo i munitsipal'nogo upravleniya* [Application of blockchain in the system of state and municipal administration]. Petropavlovsk-Kamchatsky, KamchatSTU Publ., 2019, p. 145.
17. Koneva N.S., Vyazovtseva V.Ye., Mironov A.A. *Pravovyye aspekty vnedreniya i ispol'zovaniya tekhnologii blokcheyn v gosudarstvennom upravlenii v Rossii* [Legal aspects of the implementation and use of blockchain technology in public administration in Russia]. *Bulletin of SUSU. Series "Law"*, 2021, vol. 21, no. 2, p. 29.
18. Lisina N.S. *Tsifrovaya transformatsiya i obshchestvennyy kontrol': perspektivy vliyaniya* [Digital Transformation and Social Control: Prospects for Influence]. *Current Issues of Russian Law*, 2022, vol. 17, no. 6(139), pp. 32–40.
19. *Rukovodstvo po sozdaniyu tekstov dlya proyekta «Aktivnyy grazhdanin»* [Guide to creating texts for the Active Citizen project]. Available at: <https://www.artlebedev.ru/active-citizen/edition-policy/>

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

---

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal  
Правовой научно-практический журнал  
Legal scientific-practical journal

**2025-yil 2-son**

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025  
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.